

**KICHIK MUTAXASSISLARNING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ASOSIY  
VAZIFALAR**

*Mamanov Siroj Qahramon o'g'li  
O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi  
sirojmamanov@gmail.com*

Kasb-hunar maktablarida taxsil olayotgan bo'lajak kichik mutaxassislariga ta'lim berayotgan pedagoglarning faoliyatini samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, bo'lajak kichik mutaxassislarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, olgan bilimlarini va kasbiy ko'nikmalarini shakllantira bilishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun dastab boshlang'ich bilimlardan foydalanib masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda kasb-hunar maktablari o'quvchilarining shu kungacha egalagan bilimlarini ko'zdan kechirilish lozim, bu o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitishda eng muhim tushunchalardan biri sanaladi va matematikaga doir tushunchasiga qisqacha tavsif va aniqlik kiritiladi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarning vazifalari aniqlik kiritishdagi eng muhim tushuncha sanaladi. Kasb-hunar maktablarida yetishib chiqayotgan kichik mutaxassislarni o'z iqtisosligi bo'yicha matematikani o'rganishga nafaqat bilin berishga balki intellektual bilimlarini shakllantirish uchun kerak bo'ladi bunda o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda, balki keyingi ta'lim va

kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ham xizmat qiluvchi funktsiyasini ham bajaradi. Ilmiy izlanishlar va ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirib o'qitish ta'limga, integral yondashuv, o'quvchilarda umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun fan bilimlarining umumiy platformasini topish va ulardan oqilona foydalanish imkonini beradi. O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish yo'lida fanga oid bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish va umumiy ta'lim mazmunidan foydalanish asosida amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda matematika fanidagi kasbga yo'naltirilgan masala va misollarni tartibga solish imkonini beradi. Bu kasbiy kompetensiyalarni shakllantiribgina qolay olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay bilish imkonini yaratibgina qolmasdan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan faolligini faollashtirishga yordam beradi va kelajakda amaliyotda qo'llay bilishini bilgan xolda doimiy qiziqishlarini uyg'otadi. Bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiyini rivojlantirish va mamlakatning innovatsion iqtisodiyotini yaratish uchun kichik mutaxassislariga bo'lgan talab ortib bormoqda bunga misol sifatida yurtimizda malakali ishchilar va yetuk mutaxassislar tayyorlash kasb-hunar makatlarining dolzab maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi keng rivojlanayotgan jamyatda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan kasb-hunar maktablari ta'limi oldida kasbiy jihatdan barkamol, ijodiy fikrlaydigan va yuqori malakali yetuk mutaxassislarni samarali va sifatli tayyorlash massallari turubdi. Binobarin, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirish bugungi kunning asosiy vazifasi va maqsadlariga aylandi. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini yanada takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda va bu yo'lda izlanishlarni izchilikda olib borishni taqozo etmoqda. Bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashning yangi shakllari, usullari, o'qitish texnologiyalari tubdan takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan sanaladi.

Bugun mamlakatimizda matematika fanini umumta'lim fan sifatida emas balik ta'limga kompetensiyaviy yondoshlar asosida o'quvchilarga bu fanning

kerakli fan ekanligini anglatishimiz, matematikaning kasbga yo'naltirilgan jixatlarini ochib berishimiz va o'quvchilarning kasbiga bo'lgan qiziqishlarini fan yuzasidan anglay olishi matematika ta'limisiz ish faoliyatida vazifalarni bajarish mumkin emasligini tushuntirish talab etilmoqda. Bugungi mexnat bozorida innovatsion iqtisodiyotni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish mamlakatimizdagi minglab yuqori samarali ish o'rinlarini modernizatsiya qilish mexnat bozorining talabi bo'lib qolmoqda.

Kasb-hunar maktablaridagi barcha kasb yo'nalishlarida tabiiy va ilmiy bilimlarning asosiy bo'g'ini sifatida matematika fanini ko'rsatishimiz mumkun. Bo'lajak kichik mutaxassislarining kasb-hunar ta'limida matematik ta'lim tizimini maxsus fanlar qatorida o'rganishda matematik bilimlardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bugun biz qurayotgan yangi O'zbekiston kelajagi kichik mutaxassislarga chambarchas bog'liq, hozirgi kasb-hunar maktablaridagi mavjud ta'limning holati dinamik o'zgaruvchan muhitda kasbiy ta'lim va yoshlarni o'qitish bilan bog'liq pedagogik shartlar va metodik yondashuvlarni amaliyotda qayta ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi. Bugungi kunga kelib kasbiy ta'limning fundamental mohiyatini saqlab qolgan holda amaliyotga yo'naltirishni kuchaytirish orqali mavjud malakalardan foydalanish asosida kasbiy ta'limni yangilash vazifasi turibdi. Kasb-hunar maktablari borasida shuni ta'kidlash kerakki, kasb-hunar maktablarida berilayotgan bugungi ta'limni yangi O'zbekiston ta'lim standartini o'zida jamlagan yetuk bilimli o'quvchilarni yetishtirib chiqarishdan iborat bo'lishi va uning vazifalarini bajara olishdan biridir. Hozirgi kunning talabi kasb-hunar ta'limini davlat ta'lim standartlariga moslash, kasbiy standartlarni amalga oshirish, malakali, professional kadrlar tayyorlashdan iborat.

Kasb-hunar maktablarining kichik mutaxassisliklari bo'yicha o'quvchilar tomonidan matematikani o'rganish nafaqat intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashi, balki ularni amaliyotda qo'llay olish funktsiyani ham bajarishi kerak. Bu yo'lda o'quvchilardan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish eng muhim vazifalardan sanaladi. Bugungi izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, kichik mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini intellektual yondashuvlar asosida

o'quvchilarda umumiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun fan bilimlarining umumiy platformasini yaratishimizni talab etmoqda.

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ko'pchilik o'quvchilar o'qish zarurligini anglamaydilar. Umumta'lim fanlari o'quvchilarning keyingi kasbiy faoliyatini amalga oshirishida, ko'nikmalarni egalashida axamiyati yetarli darajada emasligi, o'quvchilar har doim ham umumiy kasbiy va maxsus fanlarda o'rganilayotgan mavzularni tushunishi, kasbiy muammolarni hal qilish uchun qo'llay olishda olingan bilimlarni ishlata olmasligi, boshqacha qilib aytganda, kasb-hunar maktablari o'quvchilarining ta'lim tizimida har doim ham fanlararo aloqadan foydalanmasligi, umumta'lim fanlari va maxsus fanlar, bundan tashqari, umumta'lim fanlarini o'rganish jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari deyarli yo'q. Bundan tashqari matematika darsliklarida kasbga yo'naltirilgan topshiriqlar berilmaganligi o'quvchilarda ta'lim jarayonlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umumiy tayyorgarlik, umumiy kasbiy va maxsus fanlarni o'rganish jarayonida, xususan, bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning past sifat ko'rsatkichini berishiga va uning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga olib kelmoqda.

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muammolarini hal qilish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bilan bog'liq vazifalar, kichik mutaxassislarni kasbga yo'naltirilgan matematik tayyorgarlik, kasb-hunar maktablari ta'lim samaradorligini oshirish yo'llarini topish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish kabi sharoitlarni yaratishga erishiladi. Bunday ta'lim zamonaviy ta'lim usullarining xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi. O'quvchilarning bilim olish faoliyatining asosiy tamoyillari sifatida o'quv jarayonini shakllantirish juda muhim sanaladi. O'rganishlarimiz natijasida o'quvchilarning mustaqil ravishda faoliyat olib borishiga, faollashishiga, motivatsion jihati va kognitiv faoliyatini shakllantirilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda kasb-hunar maktablari o'qituvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri kasb-hunar maktabi o'quvchilariga matematikani o'qitishda kasbga yo'naltirishni amalga oshirish zarurdir. Buni amalga oshirish loyihasi va ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'quv jarayoniga tatbiqi, kasb-hunar maktabi o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishi, o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kichik mutaxassislarni yetuk kadrlar sifatida yetishtirib chiqarish va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda matematik ta'limning didaktik imkoniyatlarini to'laqonli o'rganishga undamoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O.X.Turakulov. Pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlar. Darslik – Toshkent: 2020, 143 b.
2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. Universitetlarning matematika fakulteti bakalavr yo'nalishidagi talabalari uchun darslik–T.: O'qituvchi, 2011 y. 302
3. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Diss. ped. fan. dok.–T., 2012. –307 b.
4. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz.-T:O'zbekiston. 2-Tom. 1995y.